ILM-FAN XABARNOMASI, SCIENCE BULLETIN, ВЕСТНИК НАУКИ
ISSN: 3030-3931 Volume 13, issue 2, May
https://doi.org/10.5281/zenodo.20050561
026

KORXONA IQTISODIYOTI TAHLILI VA BARQARORLASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Toshkent kimyo-texnologiya instituti
assistenti **J.A. Alijonov**
https://orcid.org/0009-0009-4651-2064

Toshkent kimyo-texnologiya instituti, “Logistika 24-58”
guruhi talabasi **Abdimurodova Ifora**
https://orcid.org/0009-0006-3838-6967
https://doi.org/10.5281/zenodo.20053892

Annotatsiya. Mazkur maqolada korxona iqtisodiyotini tahlil qilishning nazariy va amaliy jihatlari hamda uni barqaror rivojlantirishning zamonaviy usullari yoritilgan. Tadqiqot davomida korxona iqtisodiy faoliyatini baholash ko‘rsatkichlari, moliyaviy barqarorlik, rentabellik darajasi va resurslardan samarali foydalanish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, iqtisodiy adabiyotlarda ilgari surilgan ilmiy qarashlar hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2025-yilda Oliy Majlisga va xalqimizga yo‘llagan Murojaatnomasida belgilangan iqtisodiy ustuvor yo‘nalishlar asosida korxonalarni barqarorlashtirish mexanizmlari asoslab berilgan. Maqola natijalari korxona faoliyatini samarali boshqarish va raqobatbardoshligini oshirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: korxona iqtisodiyoti, iqtisodiy tahlil, barqaror rivojlanish, moliyaviy barqarorlik, rentabellik, innovatsiya, investitsiya, raqamli iqtisodiyot

Аннотация: В данной статье освещаются теоретические и практические аспекты анализа экономики предприятия, а также современные методы обеспечения его устойчивого развития. В исследовании рассматриваются показатели оценки экономической деятельности предприятия, финансовая устойчивость, уровень рентабельности и эффективное использование ресурсов. Кроме того, в статье обсуждаются научные подходы, представленные в экономической литературе, и обосновываются механизмы стабилизации предприятий на основе экономических приоритетов, обозначенных Президентом Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёевым в Послании Олий Мажлису и народу на 2025 год. Результаты статьи имеют практическое значение для эффективного управления предприятием и повышения его конкурентоспособности.

Ключевые слова: экономика предприятия, экономический анализ, устойчивое развитие, финансовая устойчивость, рентабельность, инновации, инвестиции, цифровая экономика

Annotation: This article highlights both the theoretical and practical aspects of analyzing enterprise economics, as well as modern methods for ensuring its sustainable development. The study examines indicators for assessing the economic activity of enterprises, financial stability, profitability levels, and efficient use of resources. In addition, the article discusses scientific views presented in economic literature and justifies mechanisms for stabilizing enterprises based on the economic priorities outlined by the President of the Republic of Uzbekistan, Sh.M. Mirziyoyev, in his 2025 Address to the Oliy Majlis and the people. The results of the article have practical significance for effective enterprise management and increasing competitiveness.

Keywords: enterprise economics, economic analysis, sustainable development, financial stability, profitability, innovation, investment, digital economy

Kirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar mamlakat iqtisodiyotining asosiy tayanch bo‘g‘ini hisoblanadi. Ular orqali ishlab chiqarish jarayoni amalga oshiriladi, yalpi ichki mahsulot yaratiladi, aholi bandligi ta’minlanadi hamda davlat byudjeti daromadlari shakllanadi. Shu bois, korxona iqtisodiyotini chuqur tahlil qilish va uning barqaror rivojlanishini ta’minlash masalalari hozirgi davrda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda korxonalar faoliyatiga global raqobatning kuchayishi, resurslar narxining o‘zgaruvchanligi, innovatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda bozor talabining tezkor o‘zgarishi sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda korxonalarning moliyaviy holatini baholash, iqtisodiy samaradorligini oshirish va barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yilda Oliy Majlisga va xalqimizga yo‘llagan Murojaatnomasida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, xususiy sektor ulushini oshirish, korxonalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, mamlakat yalpi ichki mahsulotining 145 milliard AQSh dollaridan oshgani, xorijiy investitsiyalar hajmining 43 milliard dollarga yetgani, sanoat ishlab chiqarishining yuqori sur’atlarda o‘sayotgani korxonalar iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash zarurligini ko‘rsatadi. Keyingi rejalarda bu ko’rsatkichni 167 mlrd dollarga yetkazish va 2030 – yilga borib bu ko’rsatkichni 240 mlrd. dollarga yetkazish nazarda tutilmoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda korxona iqtisodiyoti tahlili muhim ilmiy-amaliy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolaning asosiy maqsadi korxona iqtisodiyotini tahlil qilishning nazariy asoslarini ochib berish, barqarorlashtirishning zamonaviy usullarini ilmiy manbalar asosida yoritish hamda ularni amaliyotga joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi:

Korxona iqtisodiyoti tahlili va uni barqaror rivojlantirish masalalari ko‘plab mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy jihatdan o‘rganilgan.

N.G. Mankiw o‘zining “Principles of Economics” asarida korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligi ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish darajasi, xarajatlar strukturasini boshqarish hamda bozor talabiga moslashuvchanlik orqali shakllanishini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun korxonalar rentabellik va resurs samaradorligini doimiy tahlil qilib borishi zarur (Mankiw, 2018).

P. Samuelson va V. Nordhaus “Economics” darsligida korxonalar barqaror rivojlanishining asosi sifatida innovatsion texnologiyalar, investitsiyalarni jalb qilish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mexanizmlarini ko‘rsatadi. Ularning fikricha, zamonaviy iqtisodiyotda raqamli transformatsiya korxonalarning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biridir (Samuelson, Nordhaus, 2017).

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar N.M. Maxmudov M.T. Asqarova I.Y.Umarov “Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash” asarida iqtisodiy barqarorlik tushunchasini milliy iqtisodiyot va korxona darajasida tahlil qilib, moliyaviy barqarorlik, investitsion faollik va ishlab chiqarish samaradorligi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni asoslab beradilar. Ular korxona barqarorligi iqtisodiy tahlilga asoslangan boshqaruv qarorlari orqali ta’minlanishini ta’kidlaydilar. (Maxmudov, 2014).

Abdurahmonov Q., N.Q.Zokirova, “Mehnat iqtisodiyoti” o'quv qo'llanmasida korxona iqtisodiyoti tahlilini bandlik, mehnat unumdorligi va ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik bilan bog‘liq holda yoritadi. Unga ko‘ra, korxona barqarorligi nafaqat moliyaviy ko‘rsatkichlar, balki inson kapitali, mehnat resurslari va ijtimoiy omillar bilan ham chambarchas bog‘liqdir (Abdurahmonov, 2019).

Isakov M.Yu. va Maxmudov E.X. tomonidan yoritilgan nazariyalarda xususan, “Korxona iqtisodiyoti” o‘quv qo‘llanmasida, korxona iqtisodiyoti ishlab chiqarish resurslari, moliyaviy oqimlar va boshqaruv mexanizmlari birligi sifatida talqin qilinadi. Ular iqtisodiy tahlilni korxona barqarorligini ta’minlashda strategik boshqaruv vositasi sifatida baholaydi (Isakov, Maxmudov, 2020).

I.O. Ulashev, Sh. A. Atamuratov o‘zining “Korxona iqtisodiyoti va menejmenti” o‘quv qo‘llanmasida “Korxona bu insoniyat ehtiyojlarini qondirish uchun vujudga kelgan jamiyatning birlamchi va asosiy bo‘g‘inidir”-deb ta’rif berishgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan keng foydalanildi. Xususan, tizimli yondashuv, iqtisodiy tahlil, taqqoslash, statistik kuzatuv, mantiqiy tahlil hamda umumlashtirish usullari tadqiqotning metodologik asosini tashkil etdi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Iqtisodiy tahlil — bu korxona yoki tashkilotning moliyaviy holati, samaradorligi va rivojlanish imkoniyatlarini baholash jarayonidir. U korxona resurslaridan foydalanish samaradorligini, rentabellik darajasini, moliyaviy barqarorlikni, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarining optimal darajada ekanligini aniqlashga yordam beradi. Iqtisodiy tahlil nafaqat moliyaviy ko‘rsatkichlarni o‘rganish, balki strategik rejalashtirish va barqaror rivojlanish uchun tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyatini beradi.

Korxona iqtisodiy faoliyatini tahli qilish bosqichlarini esa quyidagilardan iborat:

Ma’lumotlarni yig‘ish va tizimlashtirish. Korxona moliyaviy hisobotlari, operatsion ko‘rsatkichlar, ishchilar soni va aktivlar bo‘yicha ma’lumotlar to‘planadi va tizimlashtiriladi. Shu bilan birga, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan bog‘liqlik ham hisobga olinadi (masalan, inflyatsiya, valyuta kursi, soliq siyosati).

Moliyaviy ko‘rsatkichlarni hisoblash. Rentabellik, likvidlik, moliyaviy barqarorlik va samaradorlik ko‘rsatkichlari aniqlanadi. Bu bosqich korxonaning moliyaviy sog‘ligi va barqarorligini baholash imkonini beradi

Rentabellik – korxonaning daromadi va foydasini sarf-xarajatlariga nisbatan o‘lchovchi ko‘rsatkich. U korxona qanchalik foydali ishlayotganini, sarmoya va resurslar qanday natija berayotganini ko‘rsatadi. Masalan, foyda rentabelligi, kapital rentabelligi yoki aktiv rentabelligi kabi turlari mavjud.

Likvidlik – korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini o‘z vaqtida qoplash qobiliyati. Likvidlik yuqori bo‘lsa, korxona moliyaviy inqirozga kamroq moyil bo‘ladi.

Moliyaviy barqarorlik – korxonaning uzoq muddatli moliyaviy sog‘ligi va qarz majburiyatlarini qoplash qobiliyatini o‘lchaydi. Bu ko‘rsatkich korxonaning risk darajasini baholashda muhimdir.

Samaradorlik – korxonaning resurslarni (ishchi kuchi, moddiy va moliyaviy aktivlar) qancha samarali ishlatayotganini ko‘rsatadi. Samaradorlik yuqori bo‘lsa, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlari samarali boshqarilmoqda, degani.

Strategik va tashqi muhit tahlili. SWOT tahlili: korxonaning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlar va xavf-xatarlarni aniqlash.

PESTLE tahlilda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, huquqiy va ekologik omillarni o‘rganish va ularni tahlil etiladi.

Ushbu tahlillar korxonaning tashqi muhitga moslashish va barqaror rivojlanish imkoniyatlarini baholashga xizmat qiladi.

Operatsion samaradorlik tahlili. Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlari o‘rganilib, xarajatlarni optimallashtirish va samaradorlikni oshirish usullari aniqlanadi. Raqamli transformatsiya vositalari (ERP, CRM, BI platformalari) orqali jarayonlarni avtomatlashtirish va monitoring qilish mumkin.

Natijalarni umumlashtirish va muhokama. Moliyaviy va operatsion ko‘rsatkichlar tahlili asosida xulosalar chiqariladi. Korxona strategik maqsadlariga erishish darajasi baholanadi va samaradorlik, rentabellik hamda barqarorlik bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Xususan, O‘zbekiston korxona iqtisodiyoti 2025-yilda barqaror rivojlanish yo‘lida muhim natijalarga erishdi. Milliy statistika ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda mamlakatda faol korxonalar soni 488,8 mingta bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 469,3 mingga tushdi. Biroq 2025-yil davomida korxonalar soni yana o‘sishga o‘tib, yil boshida 424,8 ming, yil oxirida esa 465,9 mingga va 2026-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 474,9 mingtaga yetganligini ko’rsatmoqda. Faol subyektlarning 84,9% kichik va mikrofirmalardan iborat bo‘lib, ular iqtisodiy diversifikatsiya va ish o‘rinlarini yaratishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Korxonalar tarkibi sektorlarga ko‘ra quyidagicha: savdo sektori faol korxonalarning 32,5%, sanoat sektori 12,6%, qishloq xo‘jaligi, o‘rmon xo‘jaligi va baliqchilik sektori esa 7,3% ni tashkil etadi. Shu bilan birga, 2025 yil noyabr holatiga xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 17,595 ta, shundan 4,204 tasi qo‘shma korxona hisoblanadi. Bu raqamlar investitsion muhitning yaxshilanishi va korxonalarda texnologik transfer imkoniyatining kengayganini ko‘rsatadi.

Korxona faoliyati bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatadiki, savdo va xizmatlar sektori yetakchi bo‘lib, iqtisodiy o‘sishga eng katta hissa qo‘shmoqda. Sanoat sektori esa barqaror o‘sishni davom ettirib, ishlab chiqarish salohiyatini oshiradi. Kichik va mikrofirmalar iqtisodiy tizimning asosiy dvigateli bo‘lib, yangi ish o‘rinlarini yaratishda ham muhim rol o‘ynaydi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ortishi esa global bozorlar bilan integratsiya va texnologik rivojlanish imkoniyatlarini kuchaytiradi.

Muhokama shuni ko‘rsatadiki, 2025-yilda O‘zbekiston korxona iqtisodiyoti iqtisodiy barqarorlikni saqlab qolmoqda, korxonalar soni oshmoqda va biznes muhitining jadal faolligi tiklanmoqda. Kichik biznes va startaplar iqtisodiy diversifikatsiyaning asosiy dvigateli sifatida xizmat qilmoqda, savdo va xizmatlar sektori esa iqtisodiy faollikni yuqori darajada ta’minlamoqda. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalar va qo‘shma korxonalar sonining o‘sishi mamlakatning investitsion jozibadorligi va global integratsiya yo‘lida strategik ustuvorlikni ko‘rsatadi.

Natijada, O‘zbekiston korxonalar iqtisodiyoti 2025-yilda barqaror o‘sish va diversifikatsiya yo‘lida muhim qadamlar tashladi. Ushbu tendensiyalarni yanada mustahkamlash uchun kichik biznes va startaplarni qo‘llab-quvvatlash siyosatini kengaytirish, raqamli transformatsiyani joriy etish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va huquqiy kafolatlarni mustahkamlash tavsiya etiladi.

Barqarorlashtirish tushunchasi. Korxona iqtisodiyotini barqarorlashtirish — bu korxonaning uzoq muddatli faoliyatini, moliyaviy va operatsion barqarorligini, raqobatbardoshlikni va resurslardan samarali foydalanishni ta’minlash jarayonidir. Barqarorlashtirish orqali korxona nafaqat qisqa muddatli foyda olishni, balki kelajakda ham

ILM-FAN XABARNOMASI, SCIENCE BULLETIN, ВЕСТНИК НАУКИ
ISSN: 3030-3931 Volume 13, issue 2, May
https://doi.org/10.5281/zenodo.20050561
026

samarali, uzluksiz va xavfsiz ishlashni maqsad qiladi. Bu jarayon moliyaviy barqarorlik, ijtimoiy mas'uliyat, innovatsiyalar va ekologik talablarni birlashtiradi va korxonaning strategik ustuvorligini shakllantiradi.

Korxonalar faoliyatida barqarorlikni ta'minlash – bu nafaqat moliyaviy sog'lom bo'lishni, balki korxona xodimlari, mahalliy jamoalar va atrof-muhit manfaatlarini ham hisobga olgan holatda faoliyat yuritishni talab etadi. Bunday yondashuv korxonaning uzoq muddatli raqobatbardoshligini va ijtimoiy jihatdan mas'uliyatli bo'lishini ta'minlaydi.

Korxona faoliyatining barqarorligini ta'minlashda uning ishlab chiqarish imkoniyatlarini o'rganish hamda ishlab chiqarish quvvatini aniqlash muhim hisoblanadi. Buning uchun, maxsulot birligiga sarflanuvchi vaqt me'yori yoki har bir uskunaning unumdorlik me'yorlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular ilg'or bo'lishi talab qilinadi. Korxona bosh bo'g'inining ishlab chiqarish quvvati quyidagi tenglama asosida hisoblanadi.

$M=n*F_{max}/M_m$

Bu yerda,

M-sex yoki uchastkaning qabul qilingan o'lchov birligidagi ishlab chiqarish quvvati;

n-sex yoki uchastkadagi ilg'or uskunalar soni;

F_{max} –bosh uskunadan foydalanish mumkin bo'lgan maksimal muddat, soat;

M_m- bosh uskunada maxsulot tayyorlashning progressiv mehnat sig'imi, soat.

Korxona iqtisodiy faoliyatini barqarorlashtirish usullari



a) Moliyaviy boshqaruvni mustahkamlash

Moliyaviy boshqaruv korxonaning barqaror iqtisodiy holatini aniqlash va saqlash uchun muhim asoslardandir. Bu quyidagilarni o'z ichiga oladi:

-xarajatlarni optimallashtirish; -pul oqimini rejalashtirish va nazorat qilish; investitsion qarorlar samaradorligini oshirish.

Moliyaviy barqarorlik korxonaning risklarga nisbatan chidamliligini oshiradi va uzoq muddatli moliyaviy strategiyani belgilashga yordam beradi

b) Operatsion samaradorlikni oshirish

Korxonaning kundalik faoliyati samaradorligi uning barqarorligiga bevosita ta'sir qiladi. Bu qadam quyidagilarni o'z ichiga oladi:

-ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish; -resurslar samaradorligini oshirish; -raqamli texnologiyalar orqali jarayonlarni avtomatlashtirish.

Masalan, **ERP** (Enterprise Resource Planning) va **CRM** (Customer Relationship Management) kabi tizimlar biznes jarayonlarini boshqarishda vaqt, xarajat va xatoliklarni kamaytiradi hamda samaradorlikni oshiradi.

c) Strategik rejalashtirish va tashqi muhit tahlili

ILM-FAN XABARNOMASI, SCIENCE BULLETIN, ВЕСТНИК НАУКИ
ISSN: 3030-3931 Volume 13, issue 2, May
https://doi.org/10.5281/zenodo.20050561
026

Korxona faoliyatida barqarorlikni ta’minlash uchun ichki va tashqi muhitni yaxshilab o‘rganish zarur. Bunda bir qancha tahlil usullaridan foydalanish imkoniyatimiz mavjud. Bu tahlillar orqali korxona o‘z strategiyasini tashqi sharoitga moslashtirib boradi va barqaror rivojlanish yo‘lini aniqlaydi.

d) Ijtimoiy va ekologik mas’uliyatni integratsiya qilish

Zamonaviy korxonalar barqaror iqtisodiyot uchun mas’uliyatli yondashuvlarni qabul qilmoqda. Bu nafaqat moliyaviy natijalarga, balki ijtimoiy va ekologik omillarga ham e’tibor qaratishni anglatadi. Masalan:

⇔ xodimlar manfaatlarini himoya qilish,
⇔ atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha dasturlar joriy etish,
⇔ korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) loyihalarini amalga oshirish.

Bunday yondashuv korxonaning ijtimoiy obro‘sini oshiradi, mijozlar va jamiyat oldidagi ishonchni mustahkamlaydi.

e) Innovatsiyalar va raqamli transformatsiya

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxona barqarorligini boshqarish uchun innovatsiyalar muhim rol o‘ynaydi. Raqamli transformatsiya – bu nafaqat texnologiyalarni joriy etish, balki biznes modelini zamonaviy bozorga moslashtirishdir. Bu orqali:

ma’lumotlarni tahlil qilish tezlashadi;
qaror qabul qilish aniqroq bo‘ladi;
resurslar samaraliroq boshqariladi;

Raqamli yechimlar korxonaning barqarorligini va bozor sharoitlariga moslashuvchanligini oshiradi.

Barqarorlashtirishning strategik afzalliklari.

Korxona darajasida barqaror iqtisodiyotga yo‘naltirilgan strategiyalarni qo‘llash bir qator afzalliklarni beradi.Birinchi navbatda uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta’minlaydi,ikkinchidan esa investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatini oshiradi.

Korxonalar faoliyatini tahlilida kelib chiqqan natijalar orqali biz aniq xulosaga kelishimiz mumkin. Bugungi kunda mamlakatimizda korxonalar faoliyatini tekshirish va ular ustidan nazoratni olib borish har 5 yilda olib boriladi. Korxona imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ushbu tekshiruvlarni har yilda korxonaning uzi tomonidan o‘tkazilib turishi maqsadga muvofiqdir. Auditning maqsadi - xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisoboti va u bilan bog‘liq bo‘lgan moliyaviy axborotlarni tekshirish asosida, ulardagi ma’lumotlarning qonun hujjatlari talablariga mos keiish-kelmaslik holatini aniqlash ham da xo‘jalik faoliyati samaradorligini oshirish va buxgalteriya hisobini takomillashtirish bo‘yicha tak lif va tavsiyalar berishdan iboratdir[1].

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, Korxona iqtisodiyotini barqarorlashtirish – bu korxonaning moliyaviy, operatsion, ijtimoiy va ekologik jihatdan uzluksiz va xavfsiz faoliyatini ta’minlash jarayonidir. Barqarorlik nafaqat qisqa muddatli foyda olishni, balki kelajakda korxona samarali, raqobatbardosh va global bozor talablariga mos faoliyat yuritishini ta’minlaydi. 2025-yil misolida O‘zbekiston korxonalari barqaror rivojlanish yo‘lida sezilarli natijalarga erishdi. Moliyaviy boshqaruv, operatsion samaradorlik, strategik rejalashtirish, ijtimoiy va ekologik mas’uliyat, shuningdek, raqamli transformatsiya korxonalarning barqarorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Masalan, ERP va CRM tizimlari orqali ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish

[1] Qudratov T. K orxonalar faoliyatining tahlili va nazorati: oliy o‘quv yurtlari uchun darslik/ T. Qudratov, N. Fayziyeva; 0 ‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «Voris-nashriyot», 2012. - 256 b.

jarayonlari optimallashtirilmoqda, resurslar samaradorligi oshirilmoqda, va qaror qabul qilish jarayoni tezlashmoqda.

Shu bilan birga, barqarorlashtirish jarayonida SWOT va PESTLE tahlillari yordamida korxonaning ichki va tashqi muhitini doimiy monitoring qilish zarur. Bu yondashuv korxona strategiyasini tashqi sharoitga moslashtirish va uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta'minlash imkonini beradi. Ijtimoiy va ekologik mas'uliyatni hisobga olish esa korxona obro'sini oshiradi, xodimlar va jamoa bilan mustahkam aloqalarni ta'minlaydi.

Adabiyotlar sharhi:

1. Principles of Economics, 6E N. Gregory Mankiw. 2012, 2009 South-Western, Cengage Learning. ISBN 13: 978-0-538-45305-9 ISBN 10: 0-538-45305-2
2. Samuelson, Paul Anthony, 1915Economics / Paul A. Samuelson, William D. Nordhaus. — 19th ed. p. cm.—(The McGraw-Hill series economics) Includes index. ISBN-13: 978-0-07-351129-0 (alk. paper) ISBN-10: 0-07-351129-3 (alk. paper) 1. Economics. I. Nordhaus, William D. II. Title. HB171.5.S25 2010 330—dc22 2009003178
3. N.M. Maxmudov M.T. Asqarova I.Y.Umarov Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash. " Fan va texnologiya" Darslik 2014-y. 288-b.
4. Q.X.Abdurahmonov, N.Q.Zokirova, Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. -T.: «Fan va texnologiya», 2013, 536 bet.
5. Maxmudov E.X. IsakovM.YU. «Korxona iqtisodiyoti» (O`quv qo`llanma) - T.: TDIU, 2006.
6. Qudratov T. Korxonalar faoliyatining tahlili va nazorati: oliy o'quv yurtlari uchun darslik/ T. Qudratov, N. Fayziyeva; 0 'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «Voris-nashriyot», 2012. - 256 b.
7. I.O. Ulashev, Sh. A. Atamuratov "Korxona iqtisodiyoti va menejmenti" o'quv qo'llanma. Tafakkur bo'stoni 2013-y.
8. Lex.uz O'zbekiston milliy qonunchilik bazasi axborot manbasi.
9. Stat.uz O'zbekiston milliy statistika qumitasi rasmiy sayti.